

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-11/4
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abdusalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutlijev Uchqun Otaboyevich, f-m.f.d.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.
Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xollijev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№11/4 (120), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2024 y. – 409 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

Sharafutdinova N.X. Tangri – umumturkiy teonim	229
Sharipova N.X. Mehmondo'stlikni ifodalovchi paremiyalarning ingliz va o'zbek tilidagi pragmatik xususiyatlarini qiyosiy talqini	231
Shermamatova S.O. Badiiy adabiyotda o'smir obrazi va psixologiyasi	234
Shirinqulova Sh.M. Lotin tilida so'z yasash turlari	237
Shoyimova K. The importance of toponymic sources in the study of the history of the country	239
Suleymanova S.A. Janrning uslubiy-shakliy takomillashuvi	242
Suyunova Z.M. "O'tkan kunlar" romanida vaqt birliklarining badiiy talqini	245
Tillayeva M. Ayrim tarixiy toponimlar tavsifi	249
To'ychiyeva L. "Uliss" va "Kapalaklar o'yini" romanlarida "yo'l" va "safar" xronotoplarining o'ziga xosligi	251
Tursunboyeva M. T., Ruzmatova D.R. Diaspora in literature: a reflection of identity and belonging	254
Tursunova F.D. Exploring encoding and decoding of facial expressions shaped by cultural norms and expectations	256
Tursunov M., Maxmidov Sh., Muhammadiyev B. O'zbekcha so'zlarni grammatik tahlil qilish algoritmlari	259
Turumova N.E. Badiiy asarning fazoviy tuzilishi tipologiyasi	262
To'xtanova M.O. Milliy xos so'zlar yoki realialar masalasi	265
Tuxtayeva M.Sh. Zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	270
Umarova M.S. Comparative evaluation of the term "tradition" in the global linguistic context using uzbek and russian language materials	272
Umidova M.F., Xolibekova O.K. Tijoriy hujjatlarning qiyosiy-lingvistik tahlili	274
Umurova Kh.H. The important methodological peculiarities of the ancient artistic culture and traditions of Central Asia	276
Umurzakova A.U. Yevropa, rus va o'zbek tilshunosligida "ziyosat turizmi"ni o'rganilganligi darajasi	279
Usmonova G.M. O'zbek rus va nemis tillarida tarjimaga oid so'zlarning qo'llanilishi	282
Usmonova Sh.Yo. Cognitive analysis of landscape terms in uzbekistan and english	285
Utayeva M.A., Xolibekova O.K. Pragmastilistika pragmalingvistikaning ichki sohasi sifatida	287
Uzoqova S.F. "Yangi O'zbekiston" islohotlarining ommaviy axborot vositalarida yoritilishining aqsh va o'zbekiston munosabatlariga ta'siri	289
Vaxidova F.S., Kamolova K. Ingliz va o'zbek tillarida aforizmlar va ularning talqini	292
Xayrullayeva N.N. Badiiy adabiyotda tabiat tushunchasining talqini	295
Xodjayeva D.Sh. Maqto'v rasmiy epideyktik nutqiy janr sifatida	298
Xolmatov D. A. Odil Yoqubov hikoyalarida an'anaviylik	300
Xolova M.B. Madaniy kodlarning lingvomadaniy asoslari	303
Xonto'rayeva Yu.K., Xolibekova O.K. Diplomatik terminlarning kontekstual va semantik tahlili	305
Xo'jayeva "Halollik" konseptini ifodalovchi okkozional sinonimlar va ularning semantikasi Қонун матнларидаги эвфемизациянинг ўрганилиш тарихи	308
Xudoyberdiyeva M. M. Izohli lug'atlardagi adabiyotshunoslik terminlarining shakliy-struktur xususiyati	310
Xudoyberganov Y.I., Xo'jayeva Z.X., Nazarova G.U. O'zbek va fransuz tillaridagi ayrim somatizm komponentli birliklarning semantik tahlili	313
Xudoyberganov Y.I., Xo'jayeva Z.X. Fransuz tilidagi "coeur" (yurak) komponentli frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolar	315
Yakubova N.E. O'zbek tili tarixiy leksikasidagi tasniya shaklli arabiy o'zlashmalar	318
Yo'ldasheva X.Q. Badiiy matnni antropotsentrik aspektda tadqiq etish muammolari	322

manzarasini yaxshi tomonga o'zgartirdi, balki uning asosiy ittifoqchilari va hamkorlari, xususan, Qo'shma Shtatlar bilan muhim munosabatlarini mustahkamladi.

Bu haqda O'zbekistonning AQSHdagi elchisi Furqat Siddiqov The Diplomat nashriga yozgan maqolasida(12) so'z yuritar ekan, AQSH va O'zbekiston munosabatlaridagi ijobiy o'zgarishlar natijalari haqida batafsil ma'lumot beradi.

Maqolada AQSH O'zbekistonning aynan qaysi sohalarda erishgan yutuqlarni olqishlashi va qo'llab-quvvatlashi haqida axborot beriladi. AQSH prezidenti Jo Bayden siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni, O'zbekistonda gender va oiladagi zo'ravonlik, shuningdek, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha olib borilayotgan ilg'or islohotlarni alohida qo'llab-quvvatlashini ta'kidlagan.

Yangi O'zbekistonning Qo'shma Shtatlar bilan mustahkamlanib borayotgan strategik hamkorligi Markaziy Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va farovonlikni ta'minlaydi. Shu sababdan Amerika nashrlarida O'zbekiston haqida xolis axborotlarni ko'p berib borilishini ta'minlash, ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. gazeta.uz/2022/08/31/yangiliklar/ "Yangi O'zbekiston deganda, har bir fuqarosi uchun g'amxo'rlik qiladigan, ochiq va adolatli jamiyat ham tushuniladi" — president" sarlavhali maqola
2. insonhuquqlari.uz/03/08/2023/ "Yangi O'zbekiston uchun, yangi hayot uchun!" sarlavhali maqola
3. Salimov, Oqil. *Yangi O'zbekiston davlati*. – T.: "Ma'naviyat", 2023. – B.2
4. uz.wikipedia.org/Hozirgi_zamon_va_Yangi_O'zbekiston_sarlavhali_ma'lumotnoma
5. Felix Richter. „New York Is The World's Media Capital“. Statista (2015-yil 11-mart).
6. kun.uz/20/12/2017/ "The New York Times: «O'zbekiston o'z eshiklarini ochmoqda» sarlavhali maqola
7. nytimes.com/interactive/2019/travel/places-to-visit.
8. gazeta.uz/11/01/2019/ "New York Times O'zbekistonga tashrif buyurishni tavsiya qildi" sarlavhali maqola
9. kun.uz/09/10/2017/ "The Wall Street Journal O'zbekistonni mintaqadagi o'zgarishlarning asosiy sababchisi deb atadi" sarlavhali maqola
10. [invest-in-uzbekistan.org/en/novosti-uzbekistana/30/07/2019/The Wall Street Journal appreciated positive changes in the economy of Uzbekistan](http://invest-in-uzbekistan.org/en/novosti-uzbekistana/30/07/2019/The_Wall_Street_Journal_appreciated_positive_changes_in_the_economy_of_Uzbekistan).
11. zarnews.uz/09/09/2023/ "The Wall Street Journal: Samarqanddagi Amir Temurning mahobatli maqbarasi nozik o'ylangan ulug'vor asardir" sarlavhali maqola
12. thediplomat.com/2023/09/new-uzbekistans-reform-agenda-a-catalyst-for-stronger-us-bilateral-relations/

UO'K 808.5

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA AFORIZMLAR VA ULARNING TALQINI

F.S.Vaxidova, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

K.Kamolova, talaba, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada aforizmlar tasnifi, xususiyatlari, talqini, ikki til doirasidagi (ingliz va o'zbek) lingvamadaniy ahamiyati yoritilgan. Paremiyalarning lingvomadaniy, kontekstual, diskursiv, lingvopragmatik, funksional-kommunikativ, hamda farq va mushtarakligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: aforizm, hikmatli so'zlar, paremlar, badiiy, umumbashariy

Аннотация. В данной статье рассматривается классификация афоризмов, их особенности, интерпретация и лингвистическое значение в рамках двух языков (английского и узбекского). Были проанализированы лингвистические, контекстуальные, дискурсивные, лингвопрагматические, функционально-коммуникативные, а также различия и когерентность паремий.

Ключевые слова: афоризм, старинные изречения, паремия, художественная литература, фольклор

Abstract. This article covers the classification of aphorisms, it's features, interpretation, and linguistic significance in the framework of two languages (English and Uzbek). The linguistic, contextual, discursive, lingua pragmatic, functionally communicative, as well as difference and coherence of paremia have been analyzed.

Key words: aphorism, old sayings, paremee, fiction, folk

Aforizmlar-qisqa, chuqur ma'no-mazmunni o'zida mujassam etgan hikmatli ibora so'z yoki gap. Ular odatda ko'p yillik tajriba asosida shakllangan, umumiy hayotiy haqiqatlarni qisqa lekin mazmunli tarzda ifodalaydi. Aforizmlar turli sohalarida, keng qo'llaniladi. Garchi aforizmlar qisqa bo'lsa-da, ularning mazmuni keng va ko'p qatlamlidir. Aforizm yunoncha "aphorismos" so'zidan olingan bo'lib, tarif, ixcham ifoda degan ma'nolarni anglatadi va ilk bor tibbiyotda Gippokrat tomonidan qo'llanilgan. Keyinchalik esa falsafa va adabiyotda keng qo'llanib, hayotiy haqiqatlarni ifoda etish vositasi sifatida keng tarqaldi.

Har qanday gap ham hikmatli so'z bo'lavermaydi. Chuqur va mazmunli ma'no kasb etishi uchun aforizmlar bir qancha xususiyatlarni o'zida aks ettirishi lozim. Aforizmlar, avvalo, qisqa va lo'nda bo'lishi lozim. Shu jihati orqali ular inson qalbiga kirib borib, uning gulf eshiklarini ochadi. Misol tariqasida "Dunyo ustoz", "Jorulloh", "Xorazm faxri", "Adiblar Ka'basi" nomlari bilan sharaflangan Mahmud az-Zamaxshariyning: "Quyosh nuri berkitilmaydi, haqiqat nuri so'nmaydi" deya aytilgan hikmatli aforizmi garchi qisqa bo'lsa-da, o'z zamirida keng va olam-olam ma'noni mujassam etadi. Keyingi muhim jihat bu uning falsafiyligidadir. Hikmatli so'zlar inson hayoti, axloq, tarbiya haqida chuqur fikrlarni bayon qiladi, o'zida hayot haqidagi falsafiy qarashlarni aks ettiradi. Mavloni Jaloliddin Rumiyni ajoyib falsafiy aforizmlari bor: "Yomon nafs-yirtqich qushdir". Bu yerdagi "yomon nafs" insondagi ichki yovuz istaklar-xudbinlik, ochko'zlik, hasad, kibr kabi xislatlarni ifoda etadi. Oxir oqibat esa manashu nafs insonni xarob qiladi va yo'ldan ozdiradi. "Yirtqich qush" obrazi esa nafsning tajovuzkorligini, halokatli kuchga ega ekanligini ifodalaydi. Yirtqich qush o'z o'ljasini qanchalik tez tutib yo'q qilsa, xuddi shunday nafs ham insonni ich-ichidan kemiradi va ahloqini yo'q qiladi.

Aforizmlarni turli tasniflarga bo'lish mumkin. Ular insoniyat tajribasining keng spektrini o'z ichiga olganligi sababli turli yo'nalishlarga bo'linishi mumkin. Umumiy jihatdan esa ular uch asosiy guruhga bo'linadi: 1. Umumbashariy; 2. Badiiy; 3. Siyosiy aforizmlar.

Bu tasnif har bir aforizmning maqsad va mazmuniga ko'ra aniqlanadi: 1. Umumbashariy aforizmlar-davr va makondan qat'iy nazar, barcha jamiyat va madaniyatlarda dolzarb bo'lib qoladigan hikmatli iboralardir. Ular hayotning umumiy haqiqatlarini, qadriyatlarini va falsafiy tushunchalarini ifodalaydi. Quyida bir qancha aforizmlar va ularning ma'nosini tahlilga tortdik: "Ko'pgina buyuk haqiqatlar avvaliga masxaralangan". (Bernard Shou) Bu aforizm katta haqiqatlar va ulug' kashfiyotlar tarixiga ishora qiladi. Ko'pincha ulkan kashfiyotlar va yangiliklar tarixda e'tiborga olinmagan va masxara qilingan, rad etilgan. Negaki, o'zgacha va noodatiy fikrlar insonlar tomonidan darhol qabul qilinmaydi, sababi bunday g'oyalar mavjud qoidalar va dunyoqarashlarni buzadi. Bu aforizm hayotda yuz bergan ko'plab voqealarni yodga soladi. Masalan, Galileo Galiley va uning Yerni Quyosh atrofida aylanishi nazariyasi dastlab katta qarshiliklarga uchragan va kamsitilgan. Ammo vaqt o'tib haqiqat o'zini namoyon qilgan va uning kashfiyotlari ilmfan tarixida tan olingan. Har qanday yangilik avvaliga rad etilishi mumkin, ammo oxir-oqibat u qabul qilinadi va tan olinadi. "Inson uchun faqat birgina baxtsizlik mavjud. U ham bo'lsa, hayotga hech bir foydasi tegmaydigan yoki mehnatdan chalg'itadigan g'oya bilan band bo'lish"[2]. (Gyote)

Dunyoga kelar ekan, inson yaxshi va mazmunli umr ko'rish uchun kurashadi. Buning uchun, avvalo, kishi o'z oldiga maqsad qo'yishi va hamisha foydali yumushlar bilan shug'ullanishi lozim. Kishi umrining zavoli bu maqsadsiz kun o'tkazmoqlikdir. Bu nafaqat vaqtni behuda sarf qilishga, balki hayotdagi muhim maqsadlardan uzoqlashishga ham olib keladi. Orzular va maqsadlar qanchalik mustahkam bo'lmasin ular faqatgina aniq yo'naltirilgan harakat bilangina insonga haqiqiy baxt keltirishi mumkin. "Bugunning chorasini ko'rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqillidir"[3]. (Abu Rayhon Beruniy)

Bu hikmatning chuqur ma'nosi shundaki, inson uzoqni ko'ra olishi va kelajakni hisobga olib harakat qilishi bu donolikdir. Ya'ni, aqilli inson faqat hozirda bo'lyotgan ishlar bilan emas, balki kelajakdagi ehtimoliy natijalarni ham hisobga oladi. Xulosa qilib aytganda, aqilli inson vaqt va kuchini bugungi qisqa muddatli foydaga emas, kelajakdagi katta muvaffaqiyatga yo'naltiradi.

2. Badiiy aforizmlar-adabiy asarlardan olinadi va ijodiy ifoda vositasi sifatida yaratiladi. Bunday aforizmlar, odatda, mualliflar, mo'yqalam sohiblari, shoirlar asarlarida uchraydi va badiiy mazmunni chuqurlashtirish, asardagi asosiy ma'noni qisqa, ta'sirli ifodalab berish va kitobxonga

yetkazish uchun foydalaniladi. Masalan, O'tkir Hoshimov o'z asarlarida bu turdagi aforizmlarni ko'plab qo'llagan: -Haqiqat havoga o'xshar ekan, nafas olib turasiz-u ammo o'zini ko'rmaysiz[4].

Aforizm haqiqatning hayotimizdagi beqiyos o'rnini ko'rsatadi. Havoning nafas olishimiz uchun qanchalik zaruriyati bo'lsa, haqiqat ham inson hayotida shunchalik muhim, lekin ko'p hollarda biz uni ko'rmaymiz va e'tibor bermaymiz. Havoni his qilishimiz faqat bizga havo yetishmagandagina aniq bo'lgani kabi haqiqat ham faqatgina adolatsizliklar sodir bo'lganda yoki haqiqat buzilgandagina seziladi. "Odam uch narsaning qadrini kechikib biladi. Yoshlik. Sog'lik. Tinchlik"[5]. Bu ibora inson hayotidagi eng muhim narsalar haqida chuqur o'yg'a undaydi. Kishilar ba'zi narsalarning qadrini ularni yo'qotganda anglab yetadi. Sog'ligini yo'qotgan insongina uning naqadar qadrli ekanini anglab yetadi. Vaqtida sog'ligimizni asramaymiz va uni yo'qotganimizda hayot naqadar qiyinlashib ketganini anglab yetamiz. Yoshlik vaqtida ko'plab imkoniyatlar eshigi ochiq bo'ladi, inson sog'lom va baquvvat bo'ladi. Qarilik eshik qoqqandagina yoshlikning muhim ahamiyati insonga seziladi. Tinchlikni odatiy hol deb qaraymiz, uning qadrini esa urush, notinchliklar va halovatimizni yo'qotganimizda anglab yetamiz. Adib bu uch unsurni o'z vaqtida qadrlash kerakligini uqtirib o'tadi.

3. Siyosiy aforizmlar-davlat va siyosat hayoti bilan bog'liq bo'lib, ularning mazmuni ijtimoiy siyosiy hodisalarni aks ettiradi. Bu turdagi aforizmlar ko'pincha siyosatchilar davlat arboblari va yetakchilar tomonidan aytiladi va xalq orasida keng tarqaladi. Ular davlat boshqaruvi, huquq va qonunchilikka oid chuqur ma'noni ifoda etadi. Quyida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan aytib o'tilgan chuqur ma'no va mazmunga ega so'zlarini keltirib o'tmoqchiman: Dunyoqarashni nima o'zgartiradi-ilm, daromad, manfaat[6].

Atrofga bo'lgan munosabatni o'zgartirishda ilm, daromad va manfaatning barchasi o'ziga xos ahamiyatga ega, chunki ular inson hayotining turli yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatadi. Ilm orqali inson turli sohalar haqida chuqur tushunchaga ega bo'lsa, daromadning o'sishi bilan insonning ehtiyojlari, imkoniyatlari doirasi kengayadi. Shaxsiy manfaatlar esa dunyoni qanday tushunishga va baholashga ta'sir etadi. Uch omil birgalikda bir-biriga ta'sir qilib, o'zaro bog'liq tarzda uning hayotiy nuqtai nazarini o'zgartirib boradi.

Aforizm ko'pincha xalq orasida muallifi noma'lum hikmatli so'z sifatida qoraladi. O'zining qisqa lo'nda va chuqur ma'noli ifodalari bilan mashhur bo'lib avloddan avlodga o'tib keladi va xalq og'zaki ijodining bir qismi sifatida shakllanadi. Biroq, aforizmlar aniq bir muallifga ega. Barcha aforizmlarning muallifi aniq, ammo ba'zilar kim tomonidan yaratilgani ma'lum emas. Biroq, bu uning avtori yo'q degani emas. Bunday turdagi anonim hikmatlar xalq og'zaki ijodining hayotda ko'rganlari va tajribalari asosida kelib chiqqan. Har ikki turdagi aforizmlar inson tafakkurini boyitadi va hayotiy yo'l-yo'riqlar beradi.

Ingliz va o'zbek tillarida aforizmlar ba'zi jihatlari bilan keng farqlanadi. Ammo, ularning ko'plab o'xshashlik jihatlari mavjud. Ikkala tildagi aforizmlar ham keng ma'no, chuqur ifoda kasb etsa-da, bir birga o'xshaydi deb ayta olmaymiz. Sababi ularni farqlab turadigan ba'zi jihatlari mavjud. Birinchi farq bu ularning madaniy va tarixiy asoslariga borib taqaladi. Ingliz tilidagi aforizmlar G'arb madaniyatiga, asosan, yunon falsafasi, xristian ta'limoti va Yevropa renessansi davriga borib taqaladi. Ular ko'pincha individualizm, erkinlik kabi g'oyalarni ilgari suradi. O'zbek tilidagi aforizmlar esa ko'proq Sharq madaniyati, islomiy qadriyatlarga bog'liq bo'lib, odob-axloq, insoniylikka undaydi. Ammo ularni bir maqsad-hayotiy saboq berish birlashtirib turadi. Masalan, Mark Tvenning: "Hech qachon kechikib bo'lmaydi" degan fikri "Sabr-meva, mehnat-non" kabi hikmatli so'zlari bilan bir xil ma'noni anglatadi. Qisqacha qilib aytganda, til va madaniyat har xil bo'lsa-da, aforizmlarda ularning mushtarak jihatlari ko'plab umuminsoniy qadriyatlarda aks etadi.

Paremiografiya va leksikografiya til va madaniyatning muhim qismidir. Leksikografiya bu lug'at tuzish va lug'atshunoslik bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik sohasi bo'lib, so'zlarning ma'nolarini, ularning qo'llanish uslublarini va turi tildagi so'zlarning o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Paremiografiya-turli xalq maqollari, matallar, hikmatli so'zlarni to'plash tasniflash va o'rganish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik sohasi bo'lib, leksikografiya bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Paremiyalar leksikografiyada alohida o'rin kasb etadi. Maqol, matal, aforizmlar bir til va madaniyatga xos ma'noni ifoda etgani bois bevosita bir tildan boshqa tilga tarjima qilinmaydi. Shu sababdan ham leksikograflar hikmatli so'zlarni imkon qadar aniqroq tarjima qilishga-ma'nosini buzmasdan yetkazib

berishga harakat qiladilar. Paremiografiya va leksikografiya bir biriga bog'liq bo'lib xalq og'zaki ijodi na'munalarini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganishga xizmat qiladi. Paremiografiya maqol, matal va aforizmlarni to'plash orqali leksikografiyaga katta hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, aforizmlar-inson tafakkurining mevasi. Ular insonning fikr-mulohazasini chuqurlashtiradigan, hayotda oqilona qarorlar qabul qilishga ilhomlantiradigan qudratli tafakkur vositasi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bernard Shou, "Hikmatlar xazinası", Toshkent 2014, 68-bet
2. Gyote, "Hikmatlar xazinası", Toshkent 2014, 82-bet
3. Abu Rayhon Beruniy, "Hikmatlar xazinası", Toshkent 2014, 106-bet
4. O'.Hoshimov, "Dunyoning ishlari: Asardan ostiga chizilgan parchalar.", X.Davron kutubxonasi, kh-davron.uz.
5. O'.Hoshimov, "Hikmatlar.uz", <https://hikmatlar.uz/author/293>
6. Sh.M.Mirziyoyev, "Hikmatlar.uz", <https://hikmatlar.uz/author/468>
7. Вахидова, Ф. (2022). Ziyorat turistik terminlar ozlashuvining intralingvistik omillari vatarixiy-etimologik manbalari. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 18(18).
8. Vakhidova, F., & Galuzina, V. (2024). Methods of investigating cognitive processes in foreign language learning. Development and Innovations in Science, 3(3), 11–16.
9. Vakhidova, F., & Galuzina, V. (2024). The connection between orwell's '1984' and our reality. Академические исследования в современной науке, 3(9), 31–37.
10. Erkinovna, Y. F. (2021). Politeness and culture. In International conference on multidisciplinary research and innovative technologies (Vol. 2, pp. 82-86).
11. Yuldasheva, F. (2022). Expressions Of Linguistic Politeness. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 16(16).
12. Erkinovna, Y. F. (2022, January). Politeness strategies. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 80-82).

UO'K: 821.111(73)-312.9

BADIIY ADABIYOTDA TABIAT TUSHUNCHASINING TALQINI

N. N. Xayrullayeva, o'qituvchi, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Maqolada tabiatshunoslik adabiy janr sifatida tahlil qilingan. Amerika adabiyotida tabiat tushunchasi qisqacha ta'riflangan. Genri Devid Toro, Robert Frost va Meri Elis Monro kabi tabiat mualliflarining adabiy merosini tavsiflash ham yoritilgan. Ushbu yozuvchilar insoniyatning tabiat dunyosi bilan aloqalarini yuqori darajada o'rganishgan.

Kalit so'zlar: tabiatshunoslik, ekokritizm, Amerika adabiyoti, . Genri Devid Toro, Robert Frost va Meri Elis Monro, "yashil" roman

Аннотация. В статье анализируется природа письма как литературного жанра. Кратко определяется понятие природы в американской литературе. Также освещается характеристика литературного наследия писателями-натуралистами, такими как Генри Дэвид Торо, Роберт Фрост и Мэри Элис Монро. Эти писатели глубоко исследуют контуры взаимоотношений человечества с миром природы.

Ключевые слова: природа, экокритика, американская литература, Генри Дэвид Торо, Роберт Фрост, Мэри Элис Монро, «зелёная» фантастика.

Abstract. This article examines nature writing as a distinct literary genre. It provides a concise definition of the concept of nature within the context of American literature. Furthermore, it elucidates the literary contributions of notable nature writers, including Henry David Thoreau, Robert Frost, and Mary Alice Monroe. These authors critically explore the nuances of the human relationship with the natural environment.

Key words: nature writing, ecocriticism, American literature, Henry David Thoreau, Robert Frost, Mary Alice Monroe, "green" fiction

Introduction. Although largely overlooked since the emergence of humanistic ecocriticism in the early 21st century, nature writing has persisted in its essential role in fostering literary environmentalism. Although Euro-American traditions predominantly shape this literary genre, it nonetheless encompasses a cross-cultural exchange of ideas. The presence of nature writing